

O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARI VA MEHNAT BOZORI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

Abduraxmonova Nozikoy

nozikoyabduraxmonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda mehnat migratsiyasi jarayonlari va uning mehnat bozoriga ta'siri tahlil qilinadi. So'nggi yillarda mamlakatda mehnat migratsiyasi sezilarli darajada oshib borayotgani kuzatilmoqda. Tadqiqotda migratsiyaning asosiy sabablari, jumladan ish haqi darajasi, bandlik imkoniyatlari, iqtisodiy omillar va aholi sonining o'sishi kabi faktorlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, migratsiya jarayonlarining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini ham tahlil qilinadi. Maqolada mehnat migratsiyasini tartibga solish va ichki mehnat bozorini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, mehnat bozori, bandlik, ishchi kuchi, iqtisodiy rivojlanish, migrantlar, pul o'tkazmalari, ish o'rinlari.


Kirish.

Hozirgi globallashuv jarayonlari sharoitida mehnat migratsiyasi dunyo iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mehnat migratsiyasi ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chib ishlashi jarayonini anglatadi. Ushbu jarayon ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish, bandlik darajasi va demografik jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston ham mehnat migratsiyasi faol kuzatilayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakat aholisining soni tez o'sib borayotgani

natijasida mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi ortib bormoqda. Shu sababli aholining bir qismi xorijiy davlatlarga ishlash maqsadida chiqib ketmoqda.

Bu jarayon mamlakat iqtisodiyoti va mehnat bozoriga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda migratsiya jarayonlarini tahlil qilish, uning mehnat bozoriga ta'sirini o'rganish hamda ushbu jarayonni samarali boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekistonda mehnat migratsiyasi asosan iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Aholining daromadlarini oshirishga bo'lgan ehtiyoj, ish haqi darajasining nisbatan pastligi va ichki mehnat bozorida ish o'rinlarining yetarli emasligi migrantlar sonining oshishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, aholi sonining o'sishi ham mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining ko'payishiga olib keladi. Natijada yoshlar va mehnatga layoqatli aholining bir qismi xorijiy davlatlarda ishlash orqali daromad topishga intiladi. O'zbekistonlik migrantlar asosan Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda faoliyat yuritadi. Bu mamlakatlarda qurilish, transport, xizmat ko'rsatish va sanoat sohalarida ish o'rinlarining mavjudligi migratsiya oqimining shakllanishiga sabab bo'lmoqda.




2017–2024 yillarda ishsizlik darajasi asosan kamayib borgan: 2017 yildagi 5.98% dan 2024 yilda taxminan 3.3% gacha tushgan. Xorijiy davlatlarga migrantlarning ketishi tobora oshib borganligi sababli, ishsizlik kamayib boradi.

1 – rasm. O‘zbekistonda ishsizlikning kamayish darajasi¹

Mehnat migratsiyasi mamlakat mehnat bozoriga turli yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, migratsiya ichki mehnat bozoridagi ortiqcha ishchi kuchining kamayishiga yordam beradi. Bu esa ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa malakali mutaxassislarning mamlakatdan chiqib ketishi “miya oqimi” muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa ayrim iqtisodiy tarmoqlarda malakali kadrlar yetishmovchiligiga olib keladi. Shu bilan birga migrantlar tomonidan yuborilayotgan pul o‘tkazmalari mamlakat iqtisodiyotiga muhim moliyaviy resurs sifatida kirib keladi. Ushbu mablag‘lar ko‘plab oilalarning turmush darajasini oshiradi hamda ichki iste’mol hajmini ko‘paytiradi.

O‘zbekistonda migratsiya jarayonlari va mehnat bozori rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu vazirlik tomonidan aholini ish bilan ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, fuqarolarni xorijda qonuniy ishlashga yo‘naltirish va ularning huquqlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Migratsiyadan qaytgan fuqarolarni qayta ish bilan ta‘minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish ham mehnat bozorining barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Male_unemployment/



Shu bilan birga, International Organization for Migration hisobotlarida O‘zbekiston mehnat migratsiyasi yuqori darajada bo‘lgan davlatlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Migrantlarning asosiy qismi vaqtinchalik ish bilan ta‘minlanish maqsadida Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va Turkiya kabi davlatlarga yo‘l oladi. Ushbu jarayon aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilsa-da, ayrim salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, noqonuniy migratsiya, mehnat ekspluatatsiyasi, shuningdek, oilaviy va ijtimoiy muammolar (masalan, oila a‘zolaridan uzoqlashish) shular jumlasidandir. IOM tomonidan xavfsiz va tartibli migratsiyani ta‘minlash, migrantlarga huquqiy va axborot yordami ko‘rsatish bo‘yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, World Bank tomonidan e‘lon qilinadigan “Migration and Development Report” hisobotlarida migratsiya va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik keng tahlil qilinadi. Ushbu hisobotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan tashqariga ishlash uchun ketgan fuqarolar yuboradigan pul o‘tkazmalari mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Bu mablag‘lar aholining turmush darajasini oshirish,

kambag'allikni kamaytirish va ichki iste'molni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Biroq uzoq muddatda malakali ishchi kuchining kamayishi, ichki mehnat bozorida kadrlar yetishmovchiligi va iqtisodiyotning tashqi daromadlarga bog'lanib qolishi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur manbalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda migratsiya jarayonlari mehnat bozori bilan uzviy bog'liq bo'lib, u qisqa muddatda ijobiy iqtisodiy samaralar bersa-da, uzoq muddatda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli davlat organlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan migratsiyani samarali boshqarish va uning ijobiy ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston mehnat migrantlarining asosiy yo'nalishlari va faoliyat sohalari keltirilgan.

1 – jadval

O'zbekiston mehnat migrantlarining asosiy yo'nalishlari va faoliyat sohalari²

| Davlatlar | Migrantlar soni (ming kishi) | Asosiy ish sohalari | Migratsiya sabablari |
|------------------|-------------------------------------|--|---|
| Rossiya | 900 | Qurilish, transport, xizmat ko'rsatish | Yuqori ish haqi, ish o'rinlari ko'pligi |
| Qozog'iston | 350 | Qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish | Geografik yaqinlik |
| Turkiya | 200 | Savdo, xizmat ko'r-satish | Yaxshi ish sharoitlari |

² <https://mehnat.uz>

| | | | |
|-------------------|-----|-----------------------------|--|
| Janubiy Koreya | 100 | Sanoat, ishlab chiqarish | Yuqori daromad va texnologik rivojlangan iqtisodiyot |
|-------------------|-----|-----------------------------|--|

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati mehnat migratsiyasini tartibga solish va migrantlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu jumladan, tashkiliy migratsiya tizimini rivojlantirish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda migrantlar uchun huquqiy va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, mamlakat ichida yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish orqali ichki mehnat bozorini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa migratsiya bosimini kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyoti va mehnat bozori rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatadigan jarayon hisoblanadi. Migratsiya bir tomondan aholining daromadlarini oshirish va ichki mehnat bozorida bosimni kamaytirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan malakali kadrlarning mamlakatdan chiqib ketishi kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish, ichki mehnat bozorini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va malakali mutaxassislar uchun qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash hamda aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.(150–200-betlar oralig‘ida)
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlari.

4. International Organization for Migration (IOM) Reports.
5. World Bank. Migration and Development Report.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari to‘plami.